

Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari turizm industriyasida xavfsizlik masalalari (Nepal va Indoneziya misolida)

Navro'z Ilxomboy o'g'li Yuldashev
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Osiyo va Tinch okeani mintaqasida sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar o'rganiladi. Indoneziya va Nepal mamlakatlarida sayyohlar duch kelishi mumkin bo'lgan xavflar va ularning oldini olish chora tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, sayyohlik politsiyasi, Butunjahon turizm tashkiloti keyingi o'rnlarda BTT, kodeks, trakking, o'g'irlik, talonchilik, pandemiya

Security issues in the tourism industry of Asian and Pacific countries (in the case of Nepal and Indonesia)

Navroz Ilkhomboy oglu Yuldashev
Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: This article discusses measures taken to ensure the safety of tourists in the Asia-Pacific region. The dangers that tourists may encounter in Indonesia and Nepal and measures to prevent them are highlighted.

Keywords: security, tourist police, World Tourism Organization, and then UNWTO, code, tracking, theft, robbery, pandemic

KIRISH

Hozirgi davrda turizm va xizmat ko'rsatish sohasi yangi soha bo'lishiga qaramasdan jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda. Mintaqlarda, xususan, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida barqaror turizm rivojlanishida mintaqaga tashrif buyuraayotgan sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash, ular duch kelishi mumkin bo'lgan salbiy vaziyatlarning oldini olish muhim hisoblanadi. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida turizm industriyasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlarni Nepal va Indoneziya mamlakatlari misolida o'rganish va o'rganilgan tajribalardan O'zbekiston sharoitida foydalanish yo'llarini yoritib berish mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Mintaqa hududi jami 36 ta katta-kichik mamlakatlarni o'z ichiga oladi. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi dunyo aholisining 60 foizini (taxminan 4,3 milliard kishi) yashaydi va dunyoning eng zich joylashgan davlatlari, Xitoy va Hindistonni o'z ichiga

oladi. Mintaqada sayyoradagi eng kichik aholi, ayniqsa Tinch okeanidagi rivojlanayotgan kichik orol davlatlari mavjud.

Sh.S.Sayfutdinov, M.Z.Nurfayziyeva, F.M.Xalimovalar turizm geografiyasi o‘quv qo‘llanmasida mintqa turizmiga quyidagicha ta’rif berganlar: “Yevropa va Amerika mintaqasidan keyin, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, turizm sohasida o‘zining yuqori darajada tez rivojlanishi bilan ajralib turadi. Mintaqaning ayrim mamlakatlarida keyingi yillarda aniqrog‘i 1990-yildan boshlab turizm industriyasi nihoyatda tez sur’atlarda rivojlnana boshladi. Ayniqsa, Xitoy va uning boshqa hududlari hisoblangan Gongkong, Makao va Tayvan, shuningdek, Malayziya, Tailand, Singapur, Koreya respublikasi, Avstraliya, Yaponiya, Indoneziya, Yangi Zelandiya, Filippin mamlakatlari turizm sohasida juda katta natijalarga erishib kelmoqda.”¹

Mintaqa hududida turizmning rivojlanishi va sayyoohlar oqimining oshishida hududda sayyoohlar xavfsizligini ta’minalash borasida olib borilayaotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida ham sayyoohlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar uchrab turadi. Masalan: tabiiy ofatlar, o‘g‘rilik, talonchilik, firibgarlik, terrorizm yoki har xil turdagи yuqumki kasalliklarni yuqtirib olish holatlari kuzatilishi mumkin. Bunday xavflarning olidini olish borasida mintqa hududidagi mamlakatlarda sayyoohlilik palitsiyasi bo‘limlarining tashkil etilgan. “Sayyoohlilik politsiyasi ixtisoslashgan bo‘linma bo‘lib, u sayyoohlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va xavfsizligini ta’minalashda sayyoohlilik hududlarida faoliyat olib boradigan politsiya turi. Bundan tashqari sayyoohlilik politsiyasi sayyoohlarga mahalliy qonunlar haqida ma’lumotlar berish va zarur bo‘lganda sayyoohlar va mahalliy aholi o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan keskin vaziyatlarning oldini olish kabi vazifalarni ham bajaradi.”²

Bundan tashqari, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari mintqa hududida sayyoohlar xavfsizligini ta’minalash maqsadida 2021-yil 30-noyabrdan 3-dekabrgacha Ispaniyaning Madrid shahrida bo‘lib o‘tgan. Butunjahon turizm tashkilotining Bosh Assambleyasining 24-sesiyasida qabul qilingan “Sayyoohlarni himoya qilish to‘g‘risidagi” xalqaro kodeksiga qo‘shilgan. BTT ning ma’lumotlariga ko‘ra “Sayyoohlarni himoya qilish” xalqaro kodeksi (ICPT) favqulodda vaziyatlarda turistlarni himoya qilish va COVID-19 dan keyingi ssenariyda turistlarning iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha minimal xalqaro standartlar to‘plamini taqdim etadi. Bu kodeks favqulodda vaziyatlarda xalqaro sayyoohlarga yordam ko‘rsatish COVID-19 pandemiyasidan keyin sayyoohlarning sayohatga bo‘lgan

¹ Sh.S.Sayfutdinov, M.Z.Nurfayziyeva, F.M.Xalimovalar. Turizm geografiyasi o‘quv qo‘llanmasi. - TOSHKENT – “IQTISODIYOT” – 2019. 121 b.

² Yusuf Husayn Xon, Dimitrios Buxalis. Turizm menejmenti va marketingi entsiklopediyasi. Edvard Elgar nashriyoti. 510 b.

ishonchini qayta tiklash kabi maqsadlarda qabul qilingan hujjat.”³ “Kambodja, Maldiv orollari va Indoneziya BTT ning sayyoohlarni himoya qilish xalqaro kodeksini yangi imzolagan davlatlariga aylandilar. Shu bilan birga, BTT ning Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi a’zo davlatlari Kodeks to‘g‘risidagi deklaratsiyasini qabul qildilar. Ko‘zlangan asosiy maqsad bu kodeksning mintqa bo‘ylab tarqalishi va amalga oshirilishini rag‘batlantirish, turistlarni iste’molchilar sifatida himoya qilish uchun aniq, shaffof va samarali asoslarni ta’minlashning asosiy vositasi sifatida sayyoohlarda sayohatga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishdan iborat.”⁴

Indoneziya: Asosiy qismi katta-kichik orollardan tashkil topgan bu mamlakat eng ko‘p muslimmonlar yashaydigan mamlakat hisoblanadi. Mamlakat 17,5 ming oroldan tashkil topgan va poytaxti Jakarta shahri hisoblanadi. Indoneziyada turizm iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu mamlakat turizm sanoati bo‘yicha dunyoda 20-o‘rinni egallaydi. Mamlakat dunyo bo‘yicha turizm eng tez rivojlanayotgan davlatlar reytingida 9-o‘rinni, Osiyo mamlakatlari ichida 3-o‘rinni egallaydi. Mamlakatda tabiat turizmi rivojlangan bo‘lib, buning asosiy sababi yaxshi saqlangan ekotizim hisoblanadi. Mamlakat hududining 57 % ini tropik o‘rmonlar tashkil qiladi. Har qanday mamlakat singari, Indoneziya ham o‘zining ijobjiy va salbiy tomonlariga ega. Umuman olganda, uni xavfsiz sayohat joyi deb hisoblash mumkin. Biroq, har qanday sayohatchi ko‘rishi kerak bo‘lgan ehtiyyot choralari mavjud va sayohat davomida xavfsiz bo‘lish uchun to‘g‘ri bilimga ega bo‘lish juda muhim hisoblanadi. Mamlakat hududida sayyoohlarga nisbatan asosan turistik destinatsiyalarda jinoyat va firibgarlik kabi nohush xolatlar sodir etilishi mumkin. “Mamlakatda eng keng tarqalgan jinoyat turi cho‘ntaklik kabi mayda jinoyatdir. Bali kabi gavjum sayyoqlik hududlari cho‘ntakchilar bilan to‘la. Jabrlanuvchiga aylanmaslik uchun sayyoohlar qimmatbaho narsalarini mehmonxonada qulflangan holda qoldirganliklariga ishonch hosil qilishlari so‘raladi. Firibgarlik va bankomat firibgarliklari ham sodir bo‘lishi mumkin. Faqat banklar yoki korxonalar ichidagi rasmiy bankomatlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bank kartasining pin kodini va karta hisobini muntazam tekshirib turish tavsiya etiladi. Taksida firibgarlik ham sodir bo‘lishi mumkin, shuning uchun ko‘chada tasodifiy taksi haydovchisini chaqirish o‘rniga, har doim rasmiy taksi haydovchisini chaqirish maslahat beriladi. Bu jinoyatlarning barchasi qo‘rqinchli bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo ular har qanday joyda sodir bo‘lishi mumkin va agar sayyoohlar xavfsiz sayohat qilishni va bunday salbiy vaziyatlarga tushushni xohlashmasa yuqorida keltirilgan maslahatlarga amal qilishlari so‘raladi. Turli tektonik plitalar bo‘ylab joylashganligi sababli Indoneziya tabiiy ofatlarga moyil bo‘lgan turli

³[https://www.unwto.org/background-of-the-international-code-for-the-protection-of-tourists#:~:text=The%20International%20Code%20for%20the%20Protection%20of%20Tourists%20\(ICPT\)%20provides,the%20post%20COVID%2D19%20scenario](https://www.unwto.org/background-of-the-international-code-for-the-protection-of-tourists#:~:text=The%20International%20Code%20for%20the%20Protection%20of%20Tourists%20(ICPT)%20provides,the%20post%20COVID%2D19%20scenario)

⁴ <https://www.unwto.org/news/asia-and-pacific-unite-in-support-of-the-international-code-for-the-protection-of-tourists> 16.06.2023

xil orol landshaftiga ega. Orollar atrofida zilzilalar, vulqon otilishi, tsunami va toshqinlar sodir bo‘lishi mumkin. Har qanday mumkin bo‘lgan xavflardan xabardor bo‘lish uchun har doim mahalliy ogohlantirishlarni tekshirib turish maslahat beriladi. Sog‘lik nuqtai nazaridan, Indoneziyada musluk suvini ichishdan saqlanish kerak. Shuningdek, sayyoohlar barcha emlashlar bo‘yicha vaksina qabul qilganliklariga va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil tropik kasalliklarga qarshi dori-darmonlarga ega ekanliklariga ishonch hosil qilishlari so‘raladi.”⁵⁵ Shu bilan bir qatorda, Indoneziyaga tashrif buyurayotgan sayyoohlar o‘zlarining xavfsizligi uchun sayohat sug‘urtasini olishlari majburiy hisoblanadi. Chet elda biror narsa yuz bersa, sayohat sug‘urtasi sayyoohlarni qo‘llab-quvvatlaydigan hujjat hisoblanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki Indoneziya sayyoohlar xavfsizligiga e’tiborli mamlakat hisoblanadi. Sayyoohlar ham o‘zlarining xavfsizligi uchun yuqorida keltirilgan xavfsizlik qoidalariga rioya qilishsa hech qanday salbiy vaziyatlarga duch kelishmaydi.

Shu o‘rinda, Nepal mamlakati ham kichik maydonga ega bo‘lishiga qaramasdan turizm yaxshi rivojlangan mamlakatdir. Poytaxti Katmandu shahri hisoblangan va dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakat. Maydoni 147 516 km² ni tashkil qilgan bu mamlakatning asosiy qismi tog‘ tizmalarini o‘z ichiga oladi. Dunyodagi eng baland tog‘ hisoblanadigan Himalay tog‘i ham aynan shu mamlakatda joylashganligi, mamlakatga ekstremal turizm turini sevuvchi sayyoohlarning ko‘p tashrif buyurishining sababi sifatida ko‘riladi. Nepal mamlakatini ham sayyoohlar xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha muammolardan holi mamlakat deb bo‘lmaydi. Chunki, boshqa mamlakatlarda uchragani kabi Nepalda ham sayyoohlar xavfsizligi bilan bog‘liq ayrim muammolar uchrab turadi. Masalan: “Mayda o‘g‘riliklar, asosan, Katmandu shahrining diqqatga sazovor joylarida kuzatilishi mumkin. Ulardan saqlanish uchun quyidagilar maslahatlar beriladi:

- shaxsiy buyumlarga e’tiborli bo‘lish va qorong‘u tushganidan keyin ko‘chalarda iloji boricha yurmaslik.

Namoyishlar: siyosiy sabablarga ko‘ra norozilik namoyishlari, ayniqsa, Katmanduda, shuningdek, Nepalning Hindiston bilan chegaradosh janubiy mintaqasida beqaror bo‘ldi, bu esa ba’zida ta’minot tanqisligiga va chegarani kesib o‘tishga ta’sir ko‘rsatdi. Bunday vaziyatlarda sayyoohlarga Namoyishlar va katta yig‘ilishlar o‘tadigan joylardan qochish, mahalliy hokimiyatning ko‘rsatmalariga amal qilish davom etayotgan namoyishlar haqida ma’lumot olish uchun mahalliy ommaviy axborot vositalarini kuzatib boorish tavsiya etiladi. Trakking va toqqa chiqishda sayyoohlar duch kelishi mumkin bo‘lgan xavflar: o‘tkir tog‘ kasalligiga chalinish, ob-havoning keskin pasayishida natijasida sovuqda qolish yoki kutilmagan qor bo‘ronlari

⁵⁵ <https://www.worldpackers.com/articles/is-indonesia-safe>

va ko'chkilari ostida qolib ketish xavflari mavjud. Tog'larga chiqish vaqtida yuqoridagi ko'ngilsiz vaziyatlarning oldini olish borasida quyidagilarga qat'iy rioya qilish so'raladi:

- tajribali gid yollash;
- vertolyotda qutqarish va tibbiy evakuatsiyani o'z ichiga olgan sayohat sug'urtasini sotib olish
- sayyoohlар ob-havo va xavf tug'dirishi mumkin bo'lган boshqa sharoitlar haqida to'g'ri jihozlanganligiga va yaxshi xabardor bo'lганliklariga ishonch hosil qilish;
- yo'lga chiqishdan oldin trekking marshrutlari yoki chang'i yonbag'irlari haqida batafsil ma'lumot olish va belgilangan so'qmoqlar yoki qiyaliklardan ehtiyyotkorlik bilan harakatlanish va boshqalar.

Bundan tashqari, Nepal trekking agentliklar uyushmasi, Nepal turizm kengashi va Nepal favqulotta vaziyatlar boshqarmasi Nepalda sayyoohlар xavfsizligini ta'minlash uchun vakolatli organlar hisoblanadi.⁶ Nepalda sayyoohlар yuqorida keltirilgan tavsiyalarga amal qilsalar sayohatlari xavfsiz o'tadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida sayyoohlар xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada chora-tadbirrlar olib borilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Indoneziya va Nepal mamlakatlarining turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash tajribalaridan foydalangan holda O'zbekistonda sayyoohlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini yanada rivojlantirishda quyidagi takliflar beriladi:

- mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyoohlarni mahalliy qonun-qoidalardan xabardor qilish;
- sayyoohlар uchun "Xavfsiz sayohat qo'llanmalari"ni ham bosma ham elektron shaklda yaratish;
- sayyoohlар favqulodda vaziyat yuz berganda qayerga murojat qilishlari haqida ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil, 18-iyul. O'RQ-549-son. www.lex.uz
2. Tuxliyev N.T., Jiyanov O. "Turizmda xavfsizlik: Darslik.". "Ilm-Ziyo-Zakovat" nashriyoti. - Toshkent. 2022. 3 b.
3. Yoel Mansfeld Abraham Pizam. "Tourism, security and safety: from theory to practice." Elsevier Butterworth-Heinemann. 2006. 363 p.
4. István Kovári, Krisztina Zimányi. "Safety and security in the age of global tourism" (The changing role and conception of Safety abd security in tourism). 2015.

⁶ <https://travel.gc.ca/destinations/nepal> 13.03.2024

5. C. Xie, J.Zhang, A.M. Morrison. "Developing a scale to measure tourist perceived safety. Journal of Travel Research." 2021.
6. Бобкова А.Г. Безопасность туризма: учебник. Под общ. ред. д-ра юрид. наук. Е.Л. Писаревского. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 272 с.
7. www.unwto.org. – Butunjahon Turizm Tashkiloti rasmiy veb-sayti.
8. www.worlddata.info